



Chig'atoy ulusi o'troqlashuvi jarayonlarida Baroqxon roli va faoliyati

Abdusodiqov Sardorbek Zokirjon o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada Baroqxonning Chig'atoy xonligining barpo etilishi va rivojlanishida tutgan katta roli chuqur o'rganiladi. Xonlik tarixining asosiy siyosiy shaxslaridan biri bo'lgan Baroqxon ulusning o'troqlashishiga katta hissa qo'shgan. Uning yetakchiligi, strategik mahorati bilan birga XIII asrdagi Chig'atoy davlatining siyosiy hayoti jarayonlari to'laligicha ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'troqlashuv, poytaxt, udel, onomastika, chaqmoq, ulug' xon, qurultoy, Baroq, Chig'atoyzoda, yasoq, xon, Ulug' yurt, yorlig', ulus, mulk, Qaydu, O'qtoy, bitikchi, kuch to'plash, elchi, islom

Davlatchiligimiz tarixi ham ana shunday qadim ildizlarga ega sanaladi va tadqiqqa muhtoj bo'lgan ko'plab davrlar, hali biz to'liq tabib ulgurmagan bir qator shaxslar mavjud. Shunday shaxslardan biri Chig'atoy ulusi hukmdori sanalgan Baroqxon hisoblanadi. Baroqxon ibn Esun duva ibn Mutugen ibn Chig'atoyxon Chig'atoy ulusi taxtiga chiqqan Chig'atoy xonligining yettinchisi edi hisoblanadi [1, 187-6]. Baroqxonning otasi Esun Yesun Tuva Mutugenning uchinchi o'g'li bo'lib, Baroqning Mo'min va Yasaur ismli akalari ham mavjud edi.

Baroq ismning ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak bu ism "omadli", "g'olib" manolarini anglatadi. Ammo ba'zi manbalarda "boraq" nomi "chaqmoq" "yashin" ma'nosini ham anglatadi [1, 189-6] [2, c.123]. Shuningdek, turkiy xalqlar onomastika qoidalarida chaqmoq bilan bog'liq nomlar uchraydi. Jumladan, Saljuqiylar hukmdorlaridan biri bo'lgan Malikshohning farzandlaridan biri Barqiyoruq ismiga ega bo'lib, ismdagi yoruq so'zi nur, yorug'lik deb tarjima qilinsa, "Barq" so'zining chaqmoq deb tarjima qilinishi oydinlashadi.



Baroq yoki Barq so'zlari bilan bog'liq ismlar ko'p uchrab, jumladan XIV asrda Oltin O'rda xoni To'xtamish lashkarboshilaridabn birining ismi Barqyoruq o'g'lon sifatida keltiriladi[3, 1596]. Shomoniylikka e'tiqod qilgan mo'g'ullar chaqmoqni kuch qudrat ramzi sifatida bilgan bo'lishi mumkin. Shu sababli Esun Duva farzandiga "Baroq" ya'ni "Chaqmoq kabi kuchli" mazmunida ism qo'ygan bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda qadimiy odatlar bo'yicha katta og'il farzandga ism qo'yishning o'ziga xos usuli ham bo'lib, Akademik A. Muhammadjonovning yozishicha turkey odatga ko'ra katta og'il tug'ulganda ota suyunganidan otovdan chiqib o'z e'tiborini tortgan birinchi narsaning nomini farzandiga bergan[4, 9-6]. Baroqxonning yoshligi qayerda kechganligi aniq emas. Ammo uning otasi Esun Duva haqidagi ma'lumotlar 1251-yilgi qurultoyda uchraydi [5, p.24]. Shuningdek huddi shu yili bo'lib o'tgan qurultoyda Qora Xulokuxon Chig'atoy ulusi xoni deb e'lon qilindi. Ammo ko'p o'tmay u vafot etgan. Natijada o'g'li yosh bo'lganligi uchun xotini Eregana (Urqina) xotun taxtga chiqqan [1, 186-6.]. Aynan shu paytda yosh Muborakshoh ulug' xon huzurida tutib qilinganligi ehtimol. Bunday holatlar qadimdan amalda bo'lib kelgan, bu holat Chig'atoy ulusini Ulug' yurt ta'sirida tutib turishning usullaridan biri sifatida ko'rilgan. Jumladan bundan oldinroq bunday holat Xorazmshohlar davlatida ham ko'zga tashlangan, Shuningdek keyingi davrlarda ham bu siyosiy usul saqlanib qolgan[6 158-6]. Aynan shu davrda Baroqxon ham ulug' yurtda qolganligi ehtimol. Demak, Esun Duva ham Chig'atoy ulusi siyosatida muhim rol o'ynagan. Shu sababli uning o'g'li Baroq ulug' xon huzurida tutib qoling. Baroqxon 1264-yilga qadar Qoraqumda ulug' xon xuzurida bo'lgan. U 1264-yilga qadar shu yerda bo'lganligini o'zining qarindoshi bo'lgan Xubilayxon qo'lida ham hizmat qilganligi, 1264-yili Baroqxon aynan Xubilayxonning yorlig'i bilan Movarounnaxrga yuborilgani haqidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi [7, c.509]. Demakki 1251-1264-yillar oralig'ida Baroqxon Mo'g'ulistonda yashagan va Xubilayxon hizmatida bo'lgan, Xitoy yurishlarida ishtirok etgan. Bu narsa uning harbiy mahoratini shakllantirgan edi desak xato bo'lmaydi.



Menguxon vafotidan so'ng mo'g'ul ulusi taxti uchun kurashlar boshlanib ketdi. Jumladan Xitoyda Xubilayxon, Qoraqurumda esa Ariq Buqoxon, Chig'atoy ulusining shimoliy chegarasi bo'ylab Qoyduxon hukmron bo'lib oldilar. Xubilayxon va Ariq Buqoxon o'rtasidagi kurashlar avjiga chiqadi. Xubilayxon Qoraqurumga oziq-ovqat yuborishni cheklab qo'yadi [8, c.91]. Natijada oziq-ovqat mahsulotlarinig asosiy qismini Xitoydan oladigan dashtlik xalqlar qiyin ahvolda qolgan. Shu sababli Ariq Buqoxon Alg'uyni Chig'atoy taxtini egallab, uni Oltin O'rda ta'siridan chiqarib olishiga yordam beradi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek aytganidek "Alg'uy va Ariq Buqo o'rtasida to'liq muvofiqlik va sadoqat mavjud edi" [1, 1876].

1264-yillar atrofida Alg'uy vafot etgan. Natijada Xubilayxon boy hudud sanalgan Movrounnaxr hududlar ustidan siyosiy nazorat o'rnatishga harakat qiladi va Baroqxonni Chig'atoy ulusiga yuboradi.

1265-yili yangi Chig'atoy xonligi taxtiga Qara Xulaguning og'li Muborakshoh chiqadi. Muborakshohning taxtga chiqarilish jarayoni hozirgi Toshkent vohasida bo'lib o'tib, Oxangaron daryosi bo'yidagi qurultoyda Muborakshoh xon deb e'lon qilinadi [9, c.132]. Bu holat Muborakshoh o'zidan oldingi Chig'atoy ulusi xonlaridan farqli ravishda Movarounnaxr mahalliy aholisi manfaatlarini ko'proq inobatga olish niyatida ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek Muborakshoh birinchi bo'lib islomni qabul qilgan Chig'atoy ulusi hukmdori bo'lib, Muborakshohning islomni qabul qilishi ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ammo, aynan shu kabi jihatlar ba'zi mo'g'ul amaldorlarining undan norozi bo'lishiga sabab bo'lgani ehtimol. Chunki, mo'g'ul aristokratiyasining huquqiy qomusi sanalgan Chingizxon yasosida dinlarga birdek munosabatda bo'lish uqtirilar edi. Bu paytda Xitoydan qaytgan Baroq Xubilayxon yuborgan yorliqqa Chig'atoy ulusi taxtiga da'vo qilishi mumkin edi. Aynan shu vaziyatda Muborakshohdan norozi bo'lgan amaldorlar Baroqxon atrofida birlashadi. Jumladan, Rashidduddin bergan ma'lumotlarga ko'ra harbiylarning bir qismi va Muborakshohxonning bitikchisi Baroqxon tarafiga o'tib ketdi [8,



c.102]. Buning oqibatida Chigʻatoy ulusida fuqarolar urushi yuzaga kelgan desak xato boʻlmaydi. Ulusning shimolida Mubarakshohxon oʻrnashib olgan edi. Baroqxon esa kuch toʻplash maqsadida Movarounnahr hududiga joylashganligi ehtimol. Chunki Movarounnahr janubidagi Chagʻoniyon Baroqxonning otameros mulk sanalar edi [7 c.510]. 1265-yil kuzida Muborakshoh va unga qarshi turgan Baroqxon qoʻshinlari Xoʻjandda toʻqnash keladi, jang natijasida Muborakshohxon taxtdan agʻdariladi.

Baroqxon davrida mamlakat poytaxti maʼlum siyosiy jarayonlar taʼsirida oʻzgarib turgan boʻlishi mumkin. Jumladan 1266-yili Baroq Oʻzgandda xon deb eʼlon qilinadi[10, c.92] va bu holat poytaxtning Oʻzgandga koʻchganligini ifodalari edi. Shuningdek Baroqning Olmaliqda emas Oʻzgandda taxtga chiqishini shu davrdagi Chigʻatoy ulusining sharqiy mintaqalaridagi noqulay siyosiy vaziyat sabab deb bilish mumkin.

1266-yillar atrofida Baroqxon lashkari Oliy xoqon sanalgan Xubilayxonning qoʻshinlarini Sharqiy Turkistondan quvib chiqadi va Xoʻtangacha va boradi[11, c.20]. Natijada Baroqxon Chigʻatoy ulusining amalda oʻz qoʻliga oʻtishiga erishdi. Bunga qadar esa Chigʻatoy ulusi xonlari maʼlum darajada Ulugʻ xoqonga qaram edi. 1268-yili Baroq va Talas hamda Yettisuv atroflarida oʻrnashib olgan Qaydu oʻrtasida bir necha toʻqnashuvlar boʻlib, bu toʻqnashuvlarda Qoyduning qoʻli baland keladi [8, c.102].

1269-yili Baroqxon Talas vodiysida Qoydu huzurida boʻlib u bilan sulh tuzadi va sulhga koʻra Chigʻatoy ulusining 2/3 qismi Baroqqa qolgan qismi esa Qayduga beriladi [8, c.102]. Shu asosda Chigʻatoy ulusining sharqiy hududlari boʻylab Qaydu nazorati oʻrnatilgacha Baroqxon tomonidan poytaxt sifatida Oʻzgandning tanlanishi ham bekorga emas edi.

1270-yil bahorida Baroqxon katta qoʻshin bilan Xuroson yurishiga otlandi. Dastlabki jangda Abaqaxonning ukasi Tushinib oʻgʻul va amir Argʻun boshchiligidagi qoʻshin Baroqxon tomonidan mallubiyatga uchratiladi. Ammo koʻp oʻtmay oʻrdudagi kelishmovchilik sababli Qoyduxon yuborgan amirlar Baroqxon qoʻshinidan ajralib, ortga qaytib ketishadi. Natijada koʻp oʻtmay Abaqaxon qoʻshinlari bilan boʻlgan hal qiluvchi



jangda Baroqxon magʻlubiyatga uchraydi. Abaxondan yengilib Movarounnaxrga qaytadi [8, c.104-120].

Xurosondan ortga qaytayotgan Baroqxon umrining oxirgi davrlarida Buxoroda islom dinini qabul qilgan. Unga islom anʼanalariga muvofiq Gʻiyosiddin ismi beriladi [1, 190-6]. Ammo koʻp oʻtmay shol boʻlib qolgan Baroqxon dastlab shahzodalarning isyonini keyinchalik Qaydu tomonidan uyushtirilgan hujumlarni bartaraf etishi lozim boʻlib, 1271-yil boshlarida vafot etadi. Baroqxon Qaydu tomonidan moʻgʻul urf odatlariga koʻra baland togʻga dafn etilganini yozadi [8, c.127]. Natanziy esa bu holatni yanada aniqlashtirib, Baroqxonning qabri Oʻzgandda joylashganligini yozib qoldiradi [12, c.115].

Baroqxon hukmronligi davrida nisbatan Movarounnaxrga yaqinlashuv siyosatini amalga oshiradi. Jumladan 1268-yili Qoyduxon bilan jangdagi mallubiyatdan soʻng Baroqxon kuch toʻplash maqsadida Movarounnaxrga chekinadi. Shuningdek Baroqxon huzuriga Qoyduxon nomidan elchi sifatida kelgan Qipchoq oʻgʻulni xon Samarqandda kutib olganligi ham fikrimizning dalilidir [8, c.103]. Ayni shu davrda Yevropadan Osiyoga kelgan sayyoh Marko Polo Buxoro shahri haqida oʻz esdaliklarida yozib, Baroqxonni Buxoro hukmdori sifatida eslab oʻtgan [13, c.45]. Demakki bu davrda Movarounnaxrda ham xonning vaqtinchalik yoki mavsumiy saroy va qoʻnalgʻalari boʻlgan. Shuningdek Chigʻatoy ulus ichkii hayotida Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlar ham maʼlum darajada rol oʻynay boshlagan edi.

Davlat boshqaruvida biz ilgarigidek biron hududning maʼlum xon oila aʼzosiga udel - mulk qilib berilganligini koʻrishimiz mumkin. Ammo endi xon qarindoshlari mahalliy boshqaruvda ham ishtirok eta boshlaganligi ehtimol. Misol uchun Baroqxon Shosh va Oʻzgandni oʻz oʻgʻli Bek Temurga mulk qilib bergan edi. Duvaxon taxtga kelgach akasi Bek Temurga otasi unga mulk qilib bergan hududlarni toʻlaligicha unga berishini, bu yerlarni istagancha boshqarishini aytganida, Bek Temur unga bu mulklarni oʻgʻillariga berishini aytgan. Shunga koʻra Duvaxon Oʻzgandni Hinduga, Toshkentni Salorga beradi [14, c.49].



Shuningdek Baroqxonning yana bir o'g'li To'qtaning Xuzoriy ismli farzandi bo'lib, Xuzor (G'uzor) hududida tavallud topgan va hudud shaharfiga nomlangani ehtimol [14]. Bunga o'xshash holatlar qadimda ham kuzatilgan bo'lib, misol uchun VII asr oxirida Movarounnahrda kelgan arab lashkarboshisi Salim ibn Ziyod So'g'dda farzandli bo'lgan va uni as-Sug'diy deb atagan [15, c.35]. Shunga ko'ra Xuzor To'qtaning mulklarni tashkil etgan bo'lishi mumkin. Bundan bilishimiz Baroqxon muhim strategik hududlarni o'z o'g'illariga idofa qilish uchun topshirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Baroq davridan boshlab mo'g'ul aristokratiyasining Movarounnahrda yaqinlashuvi boshlandi. Shu bilan birga mamlakat poytaxti Olmaliqdan anchayin sharqdagi O'zgandga ko'chiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзо Улуғбек.Тўрт улус тарихи // Форс тилидан Б. Аҳмедов,Н. Норкулов, М. Ҳасаний таржимаси // Чўлпон. Тошкент:1994.
2. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история.Институт истории народов Средней Азии по имени Махпират , библиотека редких книг Хайдарбека. Ташкент. 2010.
3. Муиниддин Натанзий Мунтахаб ут-Таворихи Муиний (Муиний тарихари танланмаси). - Тошкент « O'zbekiston» 2011
4. Мухаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати. -Т.: Комуслар. 1994.
5. Michal B. Qaidu and rise if the independent state in Central Asia. Curzon Press. Great Britain. 1997.
6. Жувайний, Алоуддин Атомалик. I арихи жахонгушо (Жахон фотиhi тарихи) / Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул мухаррирлар Х-Болтабоев, М.Махмудов. - Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015
7. Бартолд В. Сочинения. Том II, часть 2. Наука. Москва. 1964.



8. Рашид-ад Дин Фазлуллах. Сборник летописей том II. //Перевод с персидского Ю.П. Верховский// Академия наук СССР. Москва: 1960.
9. История Казахстана в персидских источниках: Том I : Джамал ал-Қарши. ал-Мулхакат би-с сурах. Дайк-пресс. Алматы. 2005
10. Султанов Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2006.
11. Караев О. К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. - Б.: Кыргызстан
12. Материалы по истории Киргизов и Киргизии. выпуск и издательство «Наука» главная редакция восточной литературы Москва 1973.
13. Поло М. Книга Марко Поло//Перевод старого французского текста И. П. Минаев// “Красный пролетарий”. Москва: 1956.
14. История Казахстана в персидских источниках: Том III Му’изз ал-ансаб " Дайк-пресс. Алматы.2006
15. Ат-Табари Мухаммад. История ат-Табари//Перевод с арабского В.И.Беляев// Ташкент: Фан, 1987.